

# NOGIRONLIKNI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

Nogironlikni belgilash uchun ariza O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan berilishi mumkin

Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari (TIEK) tomonidan aniqlanadi



18 yoshgacha bo'lgan bolalarni nogiron (nogironlik) deb tan olish pediatriya tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari (PTIEK) tomonidan amalga oshiriladi

## RO'YXATGA OLISH BOSQICHLARI

TIEK KA QO'YIDAGI HUJJATLAR TAQDIM ETILADI:



Shaxsni tasdiqlovchi hujjat



Tibbiy-profilaktik muassasaning yo'llanmasi



Ambulator karta



Kasallik tarixidan ko'chirmalar



**ishlaydigan shaxslar uchun** – vaqtincha mehnatga layoqatsizlik to'g'risidagi ma'lumotnoma, sog'liqni saqlash muassasasi xulosasidan ko'chirma, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq baxtsiz hodisa yoki sog'lig'ining boshqa shikastlanishi to'g'risidagi dalolatnoma

## SALOMATLIGINI YO'QOTISH YOKI MEHNATGA LAYOQATLILIKNING BUZILISHI DARAJASIDAN KELIB CHIQQAN HOLDA NOGIRONLIKNING 3 GURUHI BELGILANADI

### I-GURUH




nogironligi - mehnat qilish qobiliyatini butunlay yo'qotgan va o'zgaralarning yordamiga, parvarishiga muhtoj bo'lgan shaxslarga

### II-GURUH



nogironligi – mehnat qilish qobiliyatini butunlay yo'qotgan, lekin o'zgaralar yordamiga, parvarishiga muhtoj bo'lmagan shaxslarga

### III-GURUH



nogironligi – mehnat qilish qobiliyatini qisman yo'qotgan shaxslarga

## PENSIYA TAYINLASH MASALALARI BO'YICHA YASHASH JOYIDAGI PENSIYA JAMG'ARMASINING BO'LIMLARIGA MUROJAAT ETISHLARI MUMKIN

- **ISHLAYOTGANLAR** tashkilot ma'muriyati orqali
- **DEHQON XO'JALIKLARI A'ZOLARI, YAKKA TARTIBDAGI MEHNAT FAOLIYATI BILAN SHUG'ULLANUVCHILAR** ariza bilan murojaat qiladilar
- **ISHLAMAYDIGAN FUQAROLAR MUSTAQIL** tarzda ariza beradilar

**! MUHIM:**



Nogironlik yeshdan qat'iy nazar belgilanadi

## NOGIRONLIK NAFAQASINI TAYINLASHDA TAQDIM ETILADIGAN HUJJATLAR



Shaxsni tasdiqlovchi hujjat



Nogironlikni tasdiqlovchi TMEK xulosasi



ish stajini, shu jumladan maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat

**YODDA TUTING**

Nafaqa tayinlash uchun qilingan murojaat kuni deb tegishli barcha hujjatlar bilan birgalikda ariza qabul qilingan kun hisoblanadi



Nafaqa tayinlash uchun ariza tegishli barcha hujjatlar ilova qilingan tarzda qabul qilingan kundan boshlab



ichida ko'rib chiqiladi

Nogironligi bo'lgan shaxslar **60 YoSHDAN KATTA ERKAKLAR** **55 YoSHDAN KATTA AYOLLAR** ga nogironlik nafaqalari **UMRBOD** tayinlanadi



Ushbu toifadagi nogironlarni qayta tibbiy ko'rikdan o'tkazish faqat ularning arizasiga binoan amalga oshiriladi



**BOLALIKDAN I va II guruh** nogironlari uchun nafaqa nogironlikning butun davri uchun tayinlanadi. Nogiron bolalar uchun nafaqalar tibbiy xulosa bilan belgilangan muddatga tayinlanadi